O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

Qo'lyozma huquqida
UDK 311.009(100)

USMONOV IBRAT BOBOMUROD O'G'LI

MILLIY VA XALQARO MEHNAT BOZORINING STATISTIK TAHLILI (O'ZBEKISTON VA QOZOG'ISTON RESPUBLIKALARI MISOLIDA)

70410801 – "Statistika" mutaxassisligi

Magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan

DISSERTATSIYA

Ilmiy rahbar: i.f.d., dots. A.A.Nabixodjayev

Toshkent – 2025

Dissertatsiya Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti "Iqtisodiy statistika" kafedrasida bajarilgan.

Ilmiy rahbar _____ **i.f.d., dots. A.A.Nabixodjayev**

Kafedra mudiri _____ **i.f.f.d., prof. B.Utanov**

Kechki ta'lim va magistratura fakulteti dekani _____ **i.f.d., prof. J.I.Karimqulov**

Men, Nimonov Sobrat Bobomurod o'g'li (F.I.Sh)
ushbu magistrlik dissertatsiya ishini mustaqil bajardim. Ko'chirmachilik holati yo'qligiga javob beraman. Ko'chirmachilikka yo'l qo'yilgan holatida magistrlik dissertatsiya ishi Yakuniy davlat attestatsiya komissiyasi raisi taqdimnomasiga asosan bekor qilinishi va "Qoniqarsiz" baho qo'yilishidan xabardorman.

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

"IQTISODIY STATISTIKA" KAFEDRASI

MAGISTRLIK DISSERTATSIYA ISHLARINING DASTLABKI HIMOYA BAYONNOMASI

2025 yil 15 aprel **Toshkent shahri**

Raisi: Prof. Utanov Bunyod Quvondiqovich
Kotibi: Dots. Raxmataliev Muzaffar Eshdavlatovich

A`zolar: Tashmatov Zayirkul Xudayberganovich, Ayubjonov Abbos Hosilovich, Nabixo'jaev Abbos Abduppataxovich, Akbarova Barno Shuxratovna, Sayfullaev Siddik Nosirovich

KUN TARTIBI:

70410801 - Statistika (tarmoqlar va sohalar bo'yicha) mutaxassisligi 2-kurs, MST-01 guruhi va S-1/23 magistrlarining magistrlik dissertatsiya ishlarini monitoring qilish bo'yicha magistrlik dissertatsiya ishining dastlabki himoyasi

Rais: Kafedraning magistrlik dissertatsiya ishlarining dastlabki himoyasida professor-o`qituvchilar va magistrantlar qatnashmoqda. Ruxsatingiz bilan "Iqtisodiy statistika" kafedrasining magistrlik dissertatsiya ishlarining dastlabki himoyasini ochiq deb e'lon qilaman.

Bugungi masala 70410701- Statistika (Tarmoqlar va sohalar bo`yicha) mutaxassisligi bo`yicha MST-01 guruhi magistranti Usmonov Ibrat Bobomurod o'g'lining "Milliy va xalqaro mehnat bozorining statistik tahlili (O'zbekiston va Qozog'iston respublikalari misolida)", Yo'ldoshev Nozimbek Ma'rufjon o'g'lining "O'zbekiston Respublikasi sanoat mahsulotlari eksportini statistik tadqiq etish", Odilxonov Umarxon Ayubxon o'g'lining "O'zbekiston Respublikasida mehnat bozorini statistik tahlili" va Jurayev Shohruh Moyli o'g'lining "O'zbekiston chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarishni statistik tadqiqi" hamda S-1/23 guruhi magistranti Ochilov Ozodbek Odil o'g'lining "Bank xizmatlarining iqtisodiy samaradorligini statistik tahlili (Respublika tijorat banklari misolida)" mavzusida magistr akademik darajasini olish uchun olib borilgan magistrlik dissertatsiya ishining dastlabki himoyasining muhokamasi.

Rais: Muhokamani o`tkazish haqida qanday takliflar bor? Kun tartibiga qo`yilgan masala bo`yicha avvalo, magistrlarning ma'ruzasini eshitib, keyin muhokamaga o`tsak. Demak, ma'ruza uchun so`z magistr Odilxonov Umarxon Ayubxon o'g'liga beriladi.

Eshitildi: Magistr Odilxonov Umarxon Ayubxon o'g'li: Hurmatli seminar

Annotatsiya

Mazkur dissertatsiya ishida O‘zbekiston va Qozog‘iston Respublikalarining milliy hamda xalqaro mehnat bozorlarining holati chuqur statistik va ekonometrik tahlil qilindi. Tadqiqotda ikki davlat mehnat bozorining asosiy ko‘rsatkichlari — ish bilan bandlik darajasi, ishsizlik ko‘rsatkichi, migratsiya oqimlari, mehnat resurslarining tarkibi hamda demografik omillar o‘rganildi.

Tahlil jarayonida xalqaro tashkilotlar (XMT, BMT, Jahon banki va boshqalar) hamda milliy statistika agentliklari ma’lumotlari asosida qiyosiy statistik tahlil olib borildi. Ayniqsa, ish bilan bandlik darajasiga ta’sir etuvchi asosiy omillar — aholi jon boshiga yalpi ichki mahsulot (YaIM), inflatsiya darajasi va aholining oliy ta’lim bilan qamrab olinishi chuqur o‘rganildi.

Ushbu omillar ta’sirini baholash uchun zamonaviy ekonometrik modellardan foydalanildi: GMM (Generalized Method of Moments) yordamida panel ma’lumotlar asosida parametrlar baholandi hamda VAR (Vector Autoregression) modeli orqali omillar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik dinamikasi tahlil qilindi. Model natijalari ikki davlat mehnat bozoriga xos xususiyatlarni aniqlash, ishsizlikni kamaytirish va bandlikni oshirishga qaratilgan siyosatlarni shakllantirish uchun muhim amaliy xulosalar beradi.

Dissertatsiya natijalari O‘zbekiston va Qozog‘iston mehnat bozorlaridagi muammolar va istiqbollarni aniqlash, shuningdek, barqaror iqtisodiy o‘sish uchun samarali bandlik siyosatini ishlab chiqishda ilmiy-amaliy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Kalit so’zlar: *Mehnat bozori, ish bilan bandlik, ishsizlik, aholi jon boshiga yalpi ichki mahsulo hajmi, GMM, VAR, Kichik kvadrantlar usuli*

Abstract

This dissertation presents an in-depth statistical and econometric analysis of the national and international labor markets of the Republic of Uzbekistan and the Republic of Kazakhstan. The study explores key labor market indicators such as employment rates, unemployment levels, migration flows, labor force structure, and demographic factors.

A comparative analysis is conducted using data from national statistics agencies and international organizations including the ILO, UN, and World Bank. Special emphasis is placed on assessing the impact of macroeconomic and social indicators—specifically, GDP per capita, inflation rate, and the higher education coverage of the population—on employment levels.

To evaluate these effects, modern econometric modeling techniques were employed. The Generalized Method of Moments (GMM) was used to estimate panel data models and to identify robust relationships between variables, while the Vector Autoregression (VAR) model was applied to analyze dynamic interactions among key indicators. The models provide valuable insights into the unique features of labor markets in both countries and offer practical implications for policy aimed at reducing unemployment and increasing employment.

The findings of this dissertation contribute to the understanding of labor market dynamics in Uzbekistan and Kazakhstan and provide a scientific basis for developing effective and sustainable labor market policies that support economic development.

Key words: *Labour market, employment, unemployment, GDP Per capita, GMM, VAR, Ordinary Least Squares.*

MUNDARIJA

	KIRISH	**3**
I BOB.	**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MEHNAT BOZORINING STATISTIK TAHLILI**	**9**
1.1.	Mehnat bozorining asosiy statistik ko‘rsatkichlari va ularning tahlili	9
1.2.	O‘zbekiston Respublikasida mehnat bozorini shakllantirish va uni rivojlantirishning me’yoriy-huquqiy asoslari	15
1.3.	O‘zbekiston Respublikasi mehnat bozori ko‘rsatkichlarini statistik tahlili	22
	1-bob bo‘yicha xulosalar	31
II BOB.	**QOZOG‘ISTON RESPUBLIKASI MEHNAT BOZORINING STATISTIK TAHLILI**	**32**
2.1.	Qozog‘iston Respublikasi mehnat bozorini shakllantirishni va uni rivojlantirishning me’yoriy-huquqiy asoslari	32
2.2.	Qozog‘iston Respublikasi mehnat bozori ko‘rsatkichlarini statistik baholash	44
2.3.	Qozog‘iston Respublikasi mehnat bozoriga ta’sir etuvchi omillar tahlili	54
	2-bob bo‘yicha xulosalar	59
III BOB.	**MEHNAT BOZORIGA TA’SIR ETUVCHI OMILLAR YORDAMIDA EKONOMETRIK MODEL TUZISH VA PROGNOZLASH**	**61**
3.1.	Ekonometrik model tuzish uchun zarur bo‘lgan ma’lumotlarni to‘plash va ularni qayta ishlash	61
3.2.	Model turlari va ekonometrik model uchun to‘plangan ma’lumotlar asosida to‘g‘ri model tanlash	68
3.3.	Tuzilgan model asosida kelgusi davrlar uchun prognozlarni aniqlash	73
	3-bob bo‘yicha xulosalar	77
	XULOSA	**79**
	FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI	**82**
	Ilovalar	**85**

KIRISH

Dissertatsiya mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi. Har qanday davlatni iqtisodiy rivojlanishining eng muhim xususiyatlaridan biri bu davlat siyosatining samaradorligini, shuningdek, aholini ish bilan ta'minlash va aholini ijtimoiy himoya qilish dasturlarini amalga oshirish darajasini belgilaydigan mehnat bozorining faoliyatidir.

Mehnat bozori holatini baholashning muhim ko'rsatkichlari ishsizlik va bandlik ko'rsatkichlari bo'lib, ular asosida keyingi qayta ishlash, baholash va statistik hisobotlar uchun ma'lumotlar shakllantiriladi. Bandlik va ishsizlik ko'rsatkichlari yordamida nafaqat mehnat bozorining holatini, balki hududlarning, iqtisodiyotning investitsion jozibadorligini, ijtimoiy-iqtisodiy sohaning rivojlanish darajasini, shuningdek, biznes yuritishda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan risklarni baholash mumkin. Ichki mehnat bozori talab va taklifning salbiy nomutanosibligi bilan tavsiflanadi, bu hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga, korxonalarning moliyaviy-iqtisodiy holatiga, mintaqaviy va umum davlat byudjetlar tarkibiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Bugungi kunda aholi bandligiga alohida e'tibor qaratilmoqda, ammo iqtisodiy o'sish sharoitida mehnat bozori ko'rsatkichlarining qiymatlari tez-tez o'zgarib borayotganligi sababli, tahlillarni doimiy ravishda yangilab turish zarur. Bandlik va ushbu ko'rsatkichga ta'sir etadigan omillarni o'rganish butun dunyoda, xususan O'zbekiston Respublikasidagi beqaror iqtisodiy vaziyatda holatni to'liq o'rganish va uni yaxshilash bo'yicha amaliy chora-tadbirlarni ishlab chiqish uchun juda muhimdir.

Iqtisodiy o'sishning sekinlashishi, aholining ma'lum bir qismini tirikchilikdan mahrum bo'lishi, mehnatga layoqatli aholining malakasini yo'qolib borishi ishsizlikning ijtimoiy oqibatlari hisoblanadi. Shuning uchun bandlikni davlat tomonidan tartibga solish nihoyatda muhimdir. Bularning barchasi ushbu tadqiqotning dolzarbligini ko'rsatadi.